



## ISLOMIY BANK MAHSULOTLARI (SALAM VA ISTISNA) NI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI: AGROBANK MISOLIDA

Xalilova Nilufar Axmatovna,  
Quqon Universiteti Andijon Filiali,  
Ijtimoiy -Iqtisodiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi  
Andijon, O'zbekiston  
Email: nilufarahmatovna2405@gmail.com

## PROSPECTS FOR IMPLEMENTING ISLAMIC BANKING PRODUCTS (SALAM AND ISTISNA): THE CASE OF AGROBANK

Khalilova Nilufar Ahmatovna,  
Teacher of the Department of Social and Economic Sciences,  
Andijan Branch of Kukan University  
Andijan, Uzbekistan  
Email: nilufarahmatovna2405@gmail.com

### JEL Classification:E5, E52

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston tijorat banklarida Islomiy bank mahsulotlari — Salam va Istisna shartnomalarini joriy etish istiqbollari tahlil qilinadi. Ushbu shartnomalar Shariatga mos moliyalashtirish mexanizmlari bo'lib, agrar va ishlab chiqarish sohalarida samarali qo'llanilishi mumkin. Tadqiqotda Agrobank ATB misolida xalqaro tajribalar, sifatli kontent tahlili hamda ekspert so'rvonomalari asosida mazkur mahsulotlarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi o'rGANildi. So'rvonomada ishtiroy etgan mutaxassislar Salam mahsulotining qishloq xo'jaligida, Istisna mahsulotining esa infratuzilma va sanoat rivojida katta ahamiyatga ega ekanini qayd etdilar. Natijalar asosida O'zbekiston sharoitlariga moslashtirilgan model va mahsulotlarni samarali joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Kelgusida pilot loyihalarni amalgalashish hamda kadrlar tayyorlash va texnologik infratuzilmani rivojlantirish zarurligi ta'kidlandi.

**Abstract.** This article examines the prospects for implementing Islamic banking products — Salam and Istisna contracts — in the commercial banking sector of

Uzbekistan. These contracts represent Shariah-compliant financing mechanisms that can be effectively applied in the agricultural and industrial sectors. The study explores the economic and social effectiveness of these products through the case of Agrobank JSCB, using international experiences, qualitative content analysis, and expert surveys. The experts surveyed highlighted the significant potential of the Salam product in agriculture and the Istisna product in supporting the development of infrastructure and industry. Based on the findings, a model adapted to Uzbekistan's context was developed, along with recommendations for the effective implementation of these products. The need to conduct pilot projects, develop human resources, and enhance technological infrastructure was also emphasized.

**Kalit so'zlar:** Islomiy bank mahsulotlari, Salam, Istisna, Shariatga mos moliyalashtirish, Agrobank, O'zbekiston bank tizimi, agrar moliyalashtirish, infratuzilmani moliyalashtirish

**Keywords:** Islamic banking products, Salam, Istisna, Shariah-compliant financing,

## *Agrobank, Uzbekistan banking sector, agricultural finance, infrastructure finance*

**Kirish.** Zamonaviy iqtisodiyotda mavjud moliyaviy tizimning katta qismi bank tizimi orqali shakllanadi. Jahon tajribasida Islomiy bank tizimi bunga samarali muqobil yechim sifatida rivojlanib bormoqda. Dastlab bu tizimga ehtiyyotkorlik bilan qaralgan bo'lsa-da, bugungi kunda u global moliyaviy sektorning muhim bo'lagiga aylangan. Islomiy bank amaliyotining ilk bosqichi 1963 yilda Misrning Mit-G'hamr shaharchasida iqtisodchi Ahmad El-Naggar tomonidan asos solingan Moliya Tejamkorlik bankidan boshlandi. O'shanda atigi yuz minglab dollarga teng bo'lgan sektor hajmi bugunga kelib yuzlab milliard dollar darajasiga yetdi.

Hozirgi kunda Islomiy bank tizimi insoniyatning beshdan bir qismi uchun afzal moliyaviy mexanizm hisoblanadi, keng turdag'i moliyaviy mahsulotlar bilan xizmat ko'rsatadi. Musulmon jamiyatlarida Shariat talablariga muvofiq investitsiya qilishga kuchli ehtiyoj mavjud bo'lib, bunda daromad manbalarining halolligi asosiy mezon hisoblanadi. So'nggi yillarda Islomiy moliyaviy institutlarning aktivlari 238 milliard dollardan 34 foizga ortgan.

Islomiy bank amaliyotida *Salam* va *Istisna* shartnomalari muhim o'rinni tutadi. *Salam* mahsuloti ishlab chiqaruvchilarga oldindan to'lov asosida kelajakdagi mahsulotlarni sotib olish imkonini beradi. Bu mexanizm fermerlar va ishlab chiqaruvchilar uchun likvidlik ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. *Istisna* mahsuloti esa buyurtma asosida mahsulot yoki inshoot ishlab chiqarishni moliyalashtirib, sanoat va infratuzilma sohalarida keng imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida agrar sektor yetakchi o'rinni egallaydi. Fermer xo'jaliklari va ishlab

chiqaruvchilarning Shariatga mos, innovatsion moliyalashtirish mexanizmlariga ehtiyoji yuqori. *Salam* orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini oldindan sotib olish, *Istisna* orqali sanoat va infratuzilma loyihibarini moliyalashtirish imkoniyati mavjud.

Ayni paytda, O'zbekiston bank tizimida Islomiy moliyalashtirishning keng joriy etilishi uchun ijobjiy demografik va iqtisodiy asoslar shakllangan. Shuningdek, Islomiy mikroqarzlar orqali kambag'allikni kamaytirish, aholi moliyaviy savodxonligini oshirish va yangi ish o'rinalarini yaratish imkoniyati mavjud. Mazkur jarayonda Agrobank ATB O'zbekiston agrar sektorini moliyalashtirishda yetakchi o'rinni egallaydi. Bank tomonidan *Salam* va *Istisna* mahsulotlarini joriy etish ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Islomiy moliyaviy mahsulotlarning Shariatga muvofiq ishlashi mamlakat musulmon aholisi uchun ishonchli va maqbul moliyaviy yechimlar taqdim etadi.

*Salam* va *Istisna* mahsulotlari orqali quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- Ishlab chiqaruvchilar va fermerlar uchun oldindan moliyalashtirish orqali likvidlikni ta'minlash;

- Shariatga mos moliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali bank xizmatlarining diversifikatsiyasini oshirish;

- Bankning raqobatbardoshligini kuchaytirish va mijozlar bazasini kengaytirish.

Islomiy moliya tizimi rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri xalqaro tajribani chuqur o'rganib, milliy sharoitga moslashtirilgan modelni ishlab chiqishdir. Mazkur maqola aynan mana shu maqsadga xizmat qiladi — xalqaro tajriba asosida *Salam* va *Istisna* mahsulotlarini Agrobanka misolida O'zbekiston bank tizimida samarali joriy etish istiqbollarini o'rganadi.

Ushbu tadqiqotda sifatli va empirik tadqiqot metodlari kompleks tarzda qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston bank tizimida, xususan, Agrobanka misolida *Salam* va *Istisna* Islomiy bank mahsulotlarini joriy etish istiqbollarini aniqlash, ularning iqtisodiy samaradorligini baholash va xalqaro tajribalarni tahlil qilishdan iborat bo'ldi.

Tadqiqot avvalida nazariy asoslari shakllantirildi. Buning uchun *Salam* va *Istisna* shartnomalarining mazmuni, huquqiy asoslari, xalqaro amaliyoti va iqtisodiy ahamiyati bo'yicha ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ilg'or xorijiy banklar tajribasi asosida chuqur kontent tahlili o'tkazildi. Islomiy moliyaviy tashkilotlar (AAOIFI, IFSB, IsDB), xalqaro banklarning yillik hisobotlari, shuningdek, O'zbekiston Markaziy banki va Moliya vazirligi tomonidan e'lon qilingan ochiq ma'lumotlar ham o'rGANildi.

Empirik ma'lumotlar yig'ishda birlamchi ma'lumotlarga asosiy urg'u berildi. Shu maqsadda Agrobanka va boshqa mutasaddi tashkilotlar vakillari, Shariat ulamolari va amaliyotchilar o'rtasida so'rvonoma va yarimstrukturaviy intervylar o'tkazildi. Umumiy hisobda 40 nafar ekspert respondentning fikrlari asosida ma'lumotlar yig'ildi.

So'rvonoma yarimstrukturaviy shaklda tuzildi. Unda *Salam* va *Istisna* mahsulotlarining mohiyati va afzalliklari, O'zbekiston sharoitida ularni joriy etishdagi asosiy muammolar va to'siqlar, Agrobanka uchun mahsulotlarning iqtisodiy samaradorligi, Shariat talablariga muvofiqlik jihatlari va mavjud huquqiy muhitning bahosi, shuningdek, texnologik va institutsional infratuzilma tayyorgarligi masalalari bo'yicha savollar jamlangan edi.

Olingan ma'lumotlar sifatli tahlil metodlari asosida qayta ishlanib, mazmuniy tahlil orqali respondentlarning ochiq

javoblari tizimlashtirildi. Kodlash va kategoriyalash orqali asosiy mavzular, muammolar va imkoniyatlar ajratib chiqildi. Tahlil natijalari esa xalqaro tajribalar bilan taqqoslab baholandi. Mazkur tadqiqotda ayrim cheklar ham mavjud bo'ldi. Ayni paytda *Salam* va *Istisna* mahsulotlari O'zbekiston amaliyotida keng joriy qilinmaganligi sababli respondentlarning amaliy tajribasi cheklangan bo'lishi mumkin. Qolaversa, qonunchilik bazasining shakllanish jarayoni davom etayotgani bois, huquqiy baholashga to'liq yondashish imkoniyati ham cheklangan edi.

Tadqiqot natijalari orqali O'zbekiston bank tizimida *Salam* va *Istisna* mahsulotlarini samarali joriy etish uchun zarur bo'lgan asosiy infratuzilmaviy, institutsional va huquqiy omillar aniqlab olindi. Xalqaro ilg'or tajribalar asosida esa Agrobanka uchun moslashtirilgan model ishlab chiqildi.

**Natijalar.** O'zbekiston bank tizimida Islomiy moliyaviy mahsulotlarni, ayniqsa *Salam* va *Istisna* shartnomalarini joriy etish imkoniyatlari, xalqaro tajriba va mahalliy sharoitda olib borilgan tahlillar asosida har tomonlama o'rGANildi. Ushbu mahsulotlar xalqaro moliya tizimida o'zining iqtisodiy samaradorligi, Shariatga muvofiqligi hamda keng qo'llanish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur ikki moliyaviy mahsulot O'zbekistonning aynan agrar va sanoat tarmoqlari uchun dolzarb va istiqbolli vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Avvalo, *Salam* shartnomasi orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga oldindan to'lov asosida moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyati yaratiladi. Bu mahsulot orqali fermerlar ekin ekish mavsumidan oldin yetarli likvidlikka ega bo'lishadi, bu esa o'z navbatida, ishlab chiqarish hajmini oshirish, rizq-iste'mol

muvozanatini saqlash hamda bozor barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, fermerlar uchun oldindan moliyalashtirishning mavjudligi ularning ishlab chiqarish jarayonini aniq rejalashtirish va resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi. Ayni vaqtida, mamlakatimizning agrar sektorida fermerlarning barqaror moliyaviy manbaga bo'lgan ehtiyoji juda yuqori, *Salam* mahsuloti esa ushbu ehtiyojni qondirish uchun moslashgan vosita sifatida ko'rilmooqda.

*Istisna* shartnomasi esa buyurtma asosida mahsulot yoki infratuzilma obyektlarini moliyalashtirish imkonini beradi. Ushbu mahsulot yordamida sanoat va infratuzilma sohasida maxsus tayyorlangan, buyurtmachi talabiga mos mahsulotlar ishlab chiqarilishi mumkin. Bu usul o'z navbatida qurilish, sanoat ishlab chiqarish va loyiha asosida ishslashni talab etuvchi sektorlar uchun ishonchli va Shariat talablariga mos moliyalashtirish usulidir. Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida aynan infratuzilma rivojlantirish va sanoat ko'lmini kengaytirish strategik yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shuma'noda *Istisna* mahsuloti orqali ushbu yo'nalishlarni moliyalashtirishning yangi imkoniyatlari ochiladi. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ko'plab davlatlar — xususan Bahrayn, Saudiya Arabistoni, Pokiston, Turkiya va Eronda *Salam* va *Istisna* shartnomalari orqali yuqori moliyaviy samaradorlikka erishilgan. Xususan, Bahrayn bank tizimida Islomiy moliyalashtirishning ulushi 58 foizni [1] tashkil etsa, Saudiya Arabistonida bu ko'rsatkich 64 foizga yetgan [2]. Pokiston tajribasida esa *Salam* va *Istisna* mahsulotlari orqali kichik fermerlar va yirik sanoat sub'yektlarini moliyalashtirishda keng amaliyat shakllangan. Pokistonda

qo'llanilayotgan *MAP* (agent orqali monitoring) va *BOS* (bank sho'basi orqali to'g'ridan-to'g'ri monitoring) modellarining samaradorligi yuqori baholanmoqda [3]. Masalan, *MAP* modeli orqali agentlar yordamida kichik fermer xo'jaliklari uchun monitoring va moliyaviy nazorat amalga oshiriladi, *BOS* modeli esa yirik ishlab chiqaruvchi va sanoat korxonalari bilan to'g'ridan-to'g'ri ishslash imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida o'tkazilgan tadqiqot natijalari ham bu mahsulotlarning dolzarbligini ko'rsatdi. Agrobanka misolida o'tkazilgan so'rovnama natijalariga ko'ra, respondentlarning 85 foizi<sup>1</sup> *Salam* mahsulotining aynan qishloq xo'jaligi sektorida samarali qo'llanishi mumkinligini bildirdi. Ularning fikricha, ushbu mahsulot orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda fermerlarning moliyaviy mustaqillagini ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, 81 foizi *Istisna* mahsulotining sanoat, ishlab chiqarish va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda muhim vosita ekanligini tasdiqladi [4]. Respondentlarning aksariyati bu mahsulot yordamida mamlakatda olib borilayotgan sanoatlashtirish jarayonlariga muhim moliyaviy yordam ko'rsatish mumkinligini qayd etishdi.

Tadqiqot davomida respondentlar Islomiy moliyalashtirishni joriy etishda uchraydigan asosiy to'siqlarni ham belgilab berishdi. Ular orasida malakali kadrlar yetishmasligi, texnologik infratuzilmaning zaifligi, Shariatga mos mahsulotlar monitoringi va nazorat mexanizmlarining yetishmasligi asosiy muammolar sifatida ajratib ko'rsatildi. Bu esa o'z navbatida, kelgusida mazkur mahsulotlarni keng miqyosda joriy etish uchun tegishli tayyorgarlik ishlarini olib borishni talab

<sup>1</sup> IFSB, 2023. IFSI Stability Report, p. 42

qiladi. Bundan tashqari, respondentlarning aksariyati Shariatga mos moliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish, diniy qadriyatlarga hurmat asosida xizmatlar portfelini diversifikatsiya qilish mumkinligini ta'kidladilar. Ayni vaqtida mamlakatimizda Islomiy moliyalashtirishga

bo'lgan ehtiyoj va qiziqish ortib bormoqda, bu esa bank sektorining rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlarni ochadi.

Xalqaro tajribaga tayangan holda, quyidagi asosiy modellarni O'zbekiston sharoitida ham joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

## Jadval-1

### MAP va BOS modellarining afzalliklari va qo'llanish sohasi<sup>2</sup>

Model	Afzalliklari	Qo'llanish sohasi
MAP	Agent orqali monitoring, qulaylik va nazorat	Kichik fermer xo'jaliklari, mikroqarz loyihalari
BOS	Bank orqali to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish	Yirik sanoat va qurilish loyihalari

Tadqiqotning empirik bosqichida Agrobanka misolida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari muhim ijtimoiy-moliyaviy holatlarni olib berdi. Respondentlarning 85 foizi *Salam* mahsulotining aynan qishloq xo'jaligi sektorida samarali qo'llanishi mumkinligini bildirdi. 81 foizi esa *Istisna* mahsulotining sanoat, ishlab chiqarish va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda muhim vosita ekanini tasdiqladi. So'rovnomada davomida respondentlar Islomiy moliyalashtirishni joriy etishda uchraydigan asosiy to'siqlarни ҳам белгилаб беришди.

Жумладан:

- Malakali kadrlar yetishmasligi (73%);
- Texnologik infratuzilma zaifligi (62%);
- Shariatga mos mahsulotlar monitoringi va nazorat mexanizmlarining yo'qligi (58%).

Bundan tashqari, respondentlarning aksariyati Shariatga mos moliyaviy xizmatlar

ko'rsatish orqali aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirish, diniy qadriyatlarga hurmat asosida xizmatlar portfelini diversifikatsiya qilish mumkinligini ta'kidladilar.

Tahlil natijalari asosida quyidagi iqtisodiy va institutsional imkoniyatlar belgilab olindi:

- Islomiy moliyalashtirishni joriy etish orqali Agrobanka o'z xizmatlar portfelini kengaytirishi, yangi mijozlar qatlaminini камраб олиши мумкин;

- Fermerlar va kichik ishlab chiqaruvchilar uchun shariatga mos, xavfsiz moliyalashtirish imkoniyati yaratiladi;

- Bank sektori raqobatbardoshligi ortadi, chunki Islomiy bank mahsulotlariga bo'lgan talab O'zbekistonda ortib bormoqda.

- Mikroqarz va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy inklyuziya darajasi oshadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki,

<sup>2</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

*Salam* va *Istisna* shartnomalari O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlari uchun barqaror, shariatga mos va ijtimoiy jihatdan ma'qul moliyaviy yechimlar bo'lib xizmat qilishi mumkin. Mazkur mahsulotlarni pilot loyihalar asosida joriy qilish orqali ularning real samarasini baholash va keyinchalik ommaviylashtirish imkoniyatlari mavjud.

**Xulosa.** O'zbekiston bank tizimida Shariatga mos Islomiy moliyalashtirish mahsulotlarini joriy etish dolzarb va istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, *Salam* va *Istisna* shartnomalari mamlakatning agrar va sanoat tarmoqlari uchun barqaror, moslashuvchan va ijtimoiy jihatdan maqbul moliyaviy vositalar sifatida xizmat qilishi mumkin.

*Salam* shartnomasi yordamida fermer xo'jaliklari mavsumiy ehtiyojlarini moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. *Istisna* mahsuloti esa yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun qulay sharoit yaratadi, bu mamlakatning sanoat salohiyatini oshirish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Xalqaro tajriba ham shuni tasdiqlamoqdaki, *Salam* va *Istisna* mahsulotlari yordamida moliyaviy inklyuziyani oshirish, aholining Shariatga mos moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish va bank sektorining raqobatbardoshligini kuchaytirish mumkin.

Biroq tadqiqot davomida aniqlangan muammolar — malakali kadrlar yetishmasligi, texnologik infratuzilmaning rivojlanmaganligi va Shariatga mos monitoring tizimlarining yetishmasligi — kelgusida yechimini topishi lozim bo'lgan asosiy masalalardandir.

Ushbu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Agrobanka va boshqa tijorat banklari uchun *Salam* va *Istisna* mahsulotlarini joriy etish bo'yicha bosqichma-bosqich strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish;

- Malakali kadrlar tayyorlash uchun maxsus o'quv dasturlarini tashkil etish va mavjud kadrlarning malakasini oshirish;

- Axborot texnologiyalarini rivojlantirish va Shariat talablariga mos mahsulot dizaynini yaratish uchun xalqaro tajriba asosida ilg'or texnologik yechimlarni joriy etish;

- Shariat kengashi bilan muntazam hamkorlik qilish orqali moliyalashtirish jarayonining Shariatga to'liq muvofiqligini ta'minlash.

Mazkur tadqiqotning natijalari asosida *Salam* va *Istisna* mahsulotlarini O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim moliyaviy vosita sifatida baholash mumkin. Kelgusida ularni tajriba asosida pilot loyihalar shaklida joriy etish va natijalari asosida keng miqyosda amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Islamic Financial Services Board (IFSB). (2023). *Islamic Financial Services Industry Stability Report 2023*. Kuala Lumpur: IFSB.  
<https://www.ifsb.org>
2. Islamic Development Bank (IsDB). (2022). *Islamic Finance Development Report 2022: Embracing Change*. Jeddah: IsDB, Refinitiv.
3. State Bank of Pakistan (SBP). (2021). *Islamic Banking Bulletin – December 2021*. Karachi: Islamic Banking Department.  
<https://www.sbp.org.pk>
4. Refinitiv. (2023). *Islamic Finance Development Indicator Report 2023*. London: Refinitiv.
5. Ali, S. S. & Ahmad, A. (2016). *Islamic Banking and Economic Growth: Empirical Evidence from the Middle East*. International Journal of Islamic and Middle Eastern Finance and Management, 9(1), 1–23.
6. Usmani, M. T. (2002). *An Introduction to Islamic Finance*. Karachi: Idaratul Ma’arif.
7. Khan, M. F. & Porzio, M. (2010). *Islamic Banking and Finance in the European Union: A Challenge*. Cheltenham: Edward Elgar Publishing.
8. Karim, R. A. A. (2001). *International Accounting Harmonization, Banking Regulation, and Islamic Banks*. The International Journal of Accounting, 36(2), 169–193.
9. Agrobanka ATB yillik hisobotlari va rasmiy sayt ma’lumotlari. (2023).  
<https://agrobank.uz>
10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). *O‘zbekiston bank tizimi bo‘yicha statistika va tahliliy shart*.  
<https://cbu.uz>